TO‘Q QAL’ASINING ME’MORIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Kushekbayeva Bonu Bolatboy qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Arxitektura kafedrasi magistranti:
banukushekbaeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida, Nukus shahri yaqinida joylashgan qadimiy To‘qqal’a (To‘qqal’a) arxeologik yodgorligining tarixiy shakllanishi, me’moriy xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shaharning mudofaa tizimi, qurilish materiallari, turar joy binolari, ichki tuzilishi va arxeologik tadqiqotlar davomida aniqlangan moddiy madaniyat namunalari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, To‘qqal’aning qadimgi Xorazm va Orolbo‘yi hududlari tarixidagi o‘rni ochib beriladi.*

Tayanch so‘zlar: *To‘qqal’a, qadimgi Xorazm, Qoraqalpog‘iston, arxitektura, arxeologik yodgorlik, qo‘rg‘on binolari, qal’a devorlari, turar joylar, ossuariy.*

Аннотация. *В данной статье анализируется историческое формирование, архитектурные особенности и этапы развития древнего археологического памятника Токкала (Ток-кала), расположенного недалеко от города Нукус на территории Республики Каракалпакстан. Будет предоставлена информация о системе обороны города, строительных материалах, жилых зданиях, внутреннем строении и образцах материальной культуры, обнаруженных в ходе археологических исследований. Также будет раскрыто место Токколы в истории древнего Хорезма и Приаралья.*

Ключевые слова: *Токкала, древний Хорезм, Каракалпакстан, архитектура, археологический памятник, оборонительные сооружения, крепостные стены, жилища, оссуарий.*

Abstract. *This article analyzes the historical formation, architectural features, and developmental stages of the ancient archaeological site of Tokkala (Tok-kala), located near the city of Nukus in the territory of the Republic of Karakalpakstan. Information will be provided regarding the city's defense system, construction materials, residential buildings, internal structure, and material culture samples discovered during archaeological research. Tokkola's place in the history of ancient Khorezm and the Aral Sea region will also be revealed.*

Keywords: *Tokkala, ancient Khorezm, Karakalpakstan, architecture, archaeological monument, defensive structures, fortress walls, dwellings, ossuary.*

Kirish. Markaziy Osiyo hududida qadimdan shakllangan shaharsozlik va me’morchilik an’analari o‘zining boy tarixi, o‘ziga xos qurilish uslublari va mudofaa inshootlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, qadimgi Xorazm hududi ushbu jarayonlarning muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda bunyod etilgan qo‘rg‘onlar, qadimiy shahar xarobalari va arxeologik yodgorliklar o‘sha davr aholisining turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, iqtisodiy faoliyati va me’moriy tafakkuri haqida muhim ma’lumot beradi.

Ana shunday tarixiy obidalardan biri Nukus shahri yaqinida joylashgan To‘qqal’a arxeologik majmuasidir. Ushbu yodgorlik qadimgi va ilk o‘rta asrlar davriga oid me’moriy va moddiy madaniyat qoldiqlarini o‘zida mujassam etgan. To‘qqal’a nafaqat mudofaa inshooti, balki turli tarixiy davrlarda aholi yashagan, hunarmandchilik va madaniy hayot rivojlangan maskan sifatida ham ilmiy ahamiyatga ega. Yodgorlikni o‘rganish qadimgi Xorazmning shimoli-g‘arbiy hududlarida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tushunishda muhim o‘rin tutadi.

To‘qqal’aning geografik o‘rni va tarixiy o‘rganilishi.

To‘qqal’a Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida, Nukus shahridan taxminan 14 kilometr shimoli-g‘arbda, tabiiy To‘qtov tepaligida joylashgan. Yodgorlikning tabiiy balandlikda barpo etilgani uning mudofaa va kuzatuv nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Arxeologik ma’lumotlarga tayangan holda, To‘qqal’a miloddan avvalgi IV asrdan milodiy XIII asrgacha bo‘lgan davrlarni qamrab olgan yodgorliklar majmuasidir. Uning tarkibida qadimiy shahar qoldiqlari, ilk o‘rta asr manzilgohi va qabriston bor. To‘qqal’a 1958-1965 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston filiali Tarix, til va adabiyot instituti tomonidan tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiya faoliyati davomida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida yodgorlikning turli tarixiy qatlamlari, me’moriy tuzilmalari va moddiy madaniyat namunalari aniqlangan. A. V. Gudkovaning 1964-yilda nashr etilgan "To‘q-qal’a" nomli ilmiy tadqiqoti ham ushbu yodgorlikni o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

[1]. Gudkova A. V. Tók-qala. - Tashkent: Izdatelstvo "Наука" Узбекской ССР, 1964. – 152b.

[2]. Gudkova A. V. Некрополь городища Ток-кала. // Советская этнография, 1963, № 6, стр. 57–71.

To‘qqal’aning me’moriy xususiyatlari

To‘qqal’a arxitekturasining asosiy xususiyati uning tabiiy relyefga moslashtirilgan holda qurilganligida. Shaharning To‘ktov tepaligida joylashgani tashqi xavfni kuzatish, hududni nazorat qilish va mudofaani tashkil etish uchun qulay sharoit yaratgan. Arxeologik qazishmalar davomida shaharning qadimiy qismida mudofaa devorlari, minoralar, turli vazifalarga mo‘ljallangan xonalar va dahlizlarning qoldiqlari aniqlangan. Xususan, ayrim xonalarning eni taxminan 3 metr, bo‘yi esa 5,5 metrni tashkil etgan. Bu o‘lchamlar qadimgi quruvchilarning ichki fazoni rejalashtirish tajribasiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shahar mudofaa tizimida devorlar va minoralar muhim vazifani bajargan. Minoralar orqali atrofni kuzatish va qo‘riqlashni kuchaytirish imkoni yaratilgan. Yo‘laklar esa shaharning turli qismlari o‘rtasidagi ichki harakatni tashkil etishga xizmat qilgan. Qurilishda qadimgi Xorazm me’morchiligiga xos bo‘lgan xom g‘isht va tuproqdan foydalanish an’analari muhim o‘rin tutgan. Bunday materiallar mintaqaning tabiiy sharoiti va mahalliy qurilish tajribasiga mos kelgan. Shu bilan birga, tuproq va xom g‘ishtdan qurilgan binolarni saqlashda tashqi tabiiy omillar muhim ta’sir ko‘rsatgan. Yodgorlikning yana bir muhim jihati, uning ichki tuzilishida mudofaa va yashash vazifalari uyg‘unligi. Dastlabki davrda harbiy-ma’muriy ahamiyatga ega bo‘lgan qo‘rg‘on, keyingi bosqichlarda turar joylar shakllangan manzilgohga aylangan.

[1]. Gudkova A. V. Tók-qala. - Tashkent: Izdatelstvo "Наука" Узбекской ССР, 1964. –10-25-b

To‘q qal’aning rivojlanish bosqichlari

To‘qqal’aning tarixiy rivojlanishini arxeologik topilmalar va me’moriy qoldiqlar asosida bir necha bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich - qadimgi davr (miloddan avvalgi IV-II asrlar).

Bu davr To‘qqal’aning dastlabki qo‘rg‘on sifatida shakllanishi bilan xarakterlanadi. Arxeologik qazishmalarda aniqlangan sopol buyumlar va me’moriy qoldiqlar shu davrga mansub. Shahar qadimgi Xorazmning shimoli-g‘arbiy hududlaridagi chegara qo‘riqlash istehkomlaridan biri vazifasini bajargan.

Bu davrda shaharning mudofaa devorlari, minoralar va ichki xonalari shakllangan. Tabiiy tepalikdan foydalanish esa, binoning strategik ahamiyatini oshirgan. Shaharning harbiy vazifasi uning me’moriy tuzilishida ham ko‘rinadi.

Keyinchalik harbiy to‘qnashuvlar natijasida shahar vayron bo‘lgan va bu hududda hayot ma’lum muddatga to‘xtagan.

Ikkinchi bosqich - Uyg‘onish va ilk o‘rta asrlar davri (milodiy VII-VIII asrlar).

Ma’lum bir tanaffusdan so‘ng To‘qqal’a hududida hayot yana jonlandi. Bu davrda turar joyning ayrim qismlarida turar joylar shakllangan va xo‘jalik faoliyati

rivojlangan. Arxeologik tadqiqotlar davomida shimoli-g‘arbiy devor o‘rtasidagi xonalar ostidan sopol quvurlar topilgan. Ushbu topilma manzilgohda suvdan foydalanish va uni taqsimlash bilan bog‘liq muayyan muhandislik yechimlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu davrga oid sopol idishlar, temir mehnat qurollari va mis tangalar ham topilgan. Tangalar orasida Kerder hukmdori Xusrav nomi bilan bog‘liq namunalar, shuningdek, Xorazm va So‘g‘d tangalari uchraydi. Bu topilmalar To‘qqal’aning o‘sha davrdagi iqtisodiy va madaniy aloqalarini o‘rganish uchun muhim.

Uchinchi bosqich - diniy-marosim va dafn inshootlari shakllangan davr (VII-VIII asrlar).

To‘qqal’a tarixida qabriston alohida o‘rin tutadi. U To‘ktov tepaligining sharqiy va shimoliy yonbag‘irlarida joylashgan. Arxeologik qazishlar natijasida ko‘plab ossuariylar, ya’ni marhumlarning suyaklarini saqlash uchun foydalanilgan maxsus sopol yoki boshqa materiallardan tayyorlangan idishlar aniqlangan. Ossuariylarning ayrimlarida xorazm yozuvida bitilgan qabr yozuvlari va turli diniy belgilar saqlanib qolgan. Ularning bir qismi milodiy VII asr oxiri - VIII asrga mansub. Ushbu topilmalar o‘sha davr aholisining diniy qarashlari, dafn marosimlari, yozuv madaniyati va san’at an’analari haqida muhim ma’lumot beradi. Shuningdek, qabristonning mavjudligi To‘qqal’aning nafaqat harbiy yoki yashash joyi, balki ma’naviy-madaniy hayot bilan ham bog‘liq bo‘lgan hudud ekanini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi bosqich - keyingi o‘rta asrlar davri (VIII-XIV asrlar).

Ossuariylar joylashgan hudud ustida so‘nggi o‘rta asrlarga oid qabriston shakllangan. Bu holat To‘qqal’a hududining uzoq vaqt davomida dafn marosimlari bilan bog‘liq muqaddas joy sifatida foydalanilganligini ko‘rsatadi. Bu bosqichda qadimgi shaharning dastlabki mudofaa vazifasi avvalgi ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lishi mumkin. Lekin hududning madaniy va diniy yodgorlik sifatida ahamiyati saqlanib qolgan. Shunday qilib, To‘qqal’a tarixida harbiy istehkom, turar joy va qabriston kabi vazifalarning turli davrlarda namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

[1]. Gudkova A. V. Tók-qala. - Tashkent: Izdatelstvo "Наука" Узбекской CCP, 1964. – 10-84-b

To‘qqal’aning tarixiy-me’moriy ahamiyati.

To‘qqal’a yodgorligi qadimgi Xorazm me’morchiligining shimoli-g‘arbiy hududlarda tarqalishi va rivojlanishini ko‘rsatuvchi muhim arxeologik manba hisoblanadi. Undagi mudofaa devorlari, minoralar, xonalar va yo‘laklar qadimgi quruvchilarning me’morchilik tajribasi va hududni muhofaza qilish usullari haqida tasavvur beradi. Yodgorlikning bir necha tarixiy davrga oid qatlamlardan tashkil topgani uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki bir hududda harbiy

istehkom, turar joylar va qabriston izlari saqlanib qolganligi jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. To‘qqal’a Qoraqalpog‘istonning tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda ham muhim o‘rin tutadi. Uni ilmiy jihatdan tadqiq etish, arxeologik qoldiqlarini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

[1]. Gudkova A. V. Tók-qala. - Tashkent: Izdatelstvo "Наука" Узбекской ССР, 1964. –148-150-b

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, To‘qqal’a qadimgi Xorazm va Orolbo‘yi hududlarining tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim arxeologik yodgorliklardan biridir. Uning me’moriy tuzilishi qadimgi davr mudofaa inshootlariga xos xususiyatlarni, keyingi davrlardagi uy-joy qurilishi va muhandislik yechimlarini o‘zida aks ettiradi. Yodgorlikning miloddan avvalgi IV-II asrlardagi harbiy istehkom sifatida shakllanishi, keyinchalik qayta jonlanib turadigan joylarning paydo bo‘lishi va ilk o‘rta asrlarda qabriston majmuasining rivojlanishi uning ko‘p bosqichli tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatadi. To‘qqal’adan topilgan sopol buyumlar, tangalar, temir qurollar va xorazm yozuvidagi ossuariy yozuvlari qadimgi aholining turmush tarzi, iqtisodiy aloqalari, diniy qarashlari va madaniy hayotini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Shu bois, To‘qqal’ani nafaqat qadimiy shahar xarobalari sifatida, balki uzoq tarixiy davrlarni o‘zida mujassam etgan me’moriy, arxeologik va madaniy meros majmuasi sifatida baholash lozim. Uni kelgusida chuqur o‘rganish va muhofaza qilish Qoraqalpog‘iston tarixini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gudkova A. V. Tók-qala. - Tashkent: Izdatelstvo "Наука" Узбекской ССР, 1964. - 152b.
2. Matrasulov Sh. Tókqala. Ózbekstan Milliy enciklopediyası materialları. 8-jild, 2004.
3. Gudkova A. V. Некрополь городища Ток-кала. // Советская этнография, 1963, № 6,
4. Gudkova, A. V. Ток-кала: исследование комплекса археологических памятников IV в. до н. э. – XI в. н. э. в Северном Хорезме. Автореферат диссертации. — Нукус, 1964.
5. Tukhtayeva, M. Tok-Kale ossuaries and Ancient Khorezmian inscriptions. GTTAD, 2022